

**ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIGA SUN‘IY INTELLEKT
TEKNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING
AHAMIYATI**

Melikulov Nurjov Latifovich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti

Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi

Tel: 77 269 27 72

Annotatsiya. *Jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, sun’iy intellekt texnologiyalari, «markaz — hudud — mahalla» yagona texnologik yondashuv, axborot makonida raqamlashtirish.*

Kalit so‘zlar: *Ichki ishlar organlari faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish va rivojlantirish konsepsiyasi, sun’iy intellekt texnologiyalari, raqamli texnologiyalar hamda robototexnikani qo‘llashning maqsadi, vazifalari, asosiy yo‘nalishlari, tamoyillari va mexanizmi.*

Аннотация. *Обеспечение общественной безопасности, борьба с преступностью, технологии искусственного интеллекта, единый технологический подход «центр — регион — район», цифровизация в информационном пространстве.*

Ключевые слова: *Концепция внедрения и развития технологий искусственного интеллекта в деятельности органов внутренних дел, цели, задачи, основные направления, принципы и механизмы применения технологий искусственного интеллекта, цифровых технологий и робототехники.*

Annotation. *Ensuring public safety, combating crime, artificial intelligence technologies, a unified technological approach "center-region-district", digitalization in the information space.*

Keywords: *The concept of implementation and development of artificial intelligence technologies in the activities of internal affairs agencies, goals, objectives, main directions, principles and mechanisms for the application of artificial intelligence technologies, digital technologies and robotics.*

Ichki ishlar organlari faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish va rivojlantirish mavzusi bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur’atlarda rivojlanishi, jamiyat hayotining barcha sohalarida raqamlashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini ham zamonaviylashtirishni

taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellekt texnologiyalarini ichki ishlar organlari tizimiga integratsiya qilish jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish, jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish orqali katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, jinoyatlarni prognozlash, shaxsni identifikatsiya qilish, video kuzatuv tizimlarini takomillashtirish kabi vazifalarni avtomatlashtirish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu esa o'z navbatida inson omilining ta'sirini kamaytirish, qaror qabul qilish jarayonlarining tezkorligi va aniqligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalarni joriy etish huquqiy, tashkiliy va axloqiy masalalarni ham yuzaga keltirib, ularni ilmiy jihatdan tadqiq etish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Mazkur maqolaning maqsadi ichki ishlar organlari faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashning nazariy-huquqiy asoslarini tahlil qilish, mavjud muammolar va imkoniyatlarni o'rganish hamda ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shu orqali, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish asosida ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yoritib beriladi.

Ichki ishlar organlari faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish va rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14- oktyabrdagi «Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-358-son qarori talablaridan kelib chiqib ichki ishlar organlarida sun'iy intellekt texnologiyalari, raqamli texnologiyalar hamda robototexnikani qo'llashning maqsadi, vazifalari, asosiy yo'nalishlari, tamoyillari va mexanizmini belgilab berdi.

Konsepsiya ichki ishlar organlari faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tashkil etish va huquqiy tartibga solishda idoraviy va normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy va innovatsion asosi hisoblanib, unda konsepsiyaning maqsadi, vazifalari va tamoyillari belgilab berilgan.

Konsepsiyaning asosiy maqsadlari sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish, ichki ishlar organlarining davlat xizmatlari ko'rsatish sohasini sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun mutaxassislarni tayyorlash, kadrlarning malakasini muntazam oshirish hamda maxsus o'quv dasturlari, seminar-treninglar tashkil etish va sun'iy intellekt usullaridan foydalangan holda ichki ishlar organlarida kiberxavfsizlikni ta'minlash,

ma'lumotlar bazalari, telekommunikatsiya tarmoqlariga bo'ladigan har qanday ruxsatsiz kirishlarni oldindan aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan.

Konsepsiyaning vazifalari ichki ishlar organlarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni tashkil etish va rejalashtirishning normativ-huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ma'lumotlarni qayta ishlash uchun ichki ishlar organlari texnik infratuzilmasini shakllantirish, ichki ishlar organlari xodimlarining jinoyatchilikka qarshi kurashishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishini ta'minlash, jamoat xavfsizligini ta'minlashda sun'iy intellekt texnologiyalari, raqamli texnologiya va robototexnikani keng joriy etish, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash va rivojlantirish orqali joriy infratuzilmani maqbullashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib ichki ishlar organlari xodimlarining mehnat samaradorligini oshirish hamda bu orqali tashkiliy-shtat ta'minotini maqbullashtirish, ichki ishlar organlarining tezkor-profilaktik va davlat xizmatlari ko'rsatish faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash, xodimlar malakasini oshirish, ushbu jarayonga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, sun'iy intellekt texnologiyalarini ichki ishlar organlari faoliyatida keng qo'llash bo'yicha bevosita ichki ishlar organlari tizimida, idoralararo, shuningdek, xalqaro hamkorlik qilish uchun zaruriy sharoitlar yaratish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va uni tatbiq etish choralari ko'rish, sohada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish hisoblanadi.

Konsepsiyani amalga oshirishning asosiy tamoyillari qonuniylik, xavfsizlik, shaffoflik, texnologik mustaqillik, iqtisodiy, ilmiy-amaliy asoslanganlik va jarayonlarning yaxlitligidan iboratdir.

Ichki ishlar vazirligining sohaviy xizmatlari va hududiy bo'linmalari, shuningdek, ta'lim muassasalari sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashning sub'ektlari hisoblanadi.

Xush borada, ichki ishlar organlari faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda qanday tashkiliy choralar ko'rilishi lozim.

Mavjud axborot-tahliliy ta'minot tizimining texnologik infratuzilmasini, idoraviy telekommunikatsiya va ma'lumotlarni uzatish tizimini kengaytirish, yaxlit dasturiy-texnik komplekslarni ommalashtirish orqali sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga texnik tayyorgarlik ko'rib borish.

Xodimlarda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashga oid bilimlarni shakllantirish uchun ta'lim muassasalarida ushbu texnologiyalardan foydalanish bo'yicha sharoitlar yaratish, sun'iy intellekt sohasida ixtisoslashgan ta'lim muassasalari va ilmiy-texnika institutlari bilan hamkorlikda Raqamli kompetensiyalar va innovatsiya markazi faoliyatini yo'lga qo'yish.

Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib, tezkor-profilaktik va xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari hamda mehnat unumdorligini oshirish, kunlik takrorlanadigan funksiyalar va xizmatlar, ayniqsa, jarayonlarda inson omilini cheklaydigan yaxlit avtomatlashtirish tizimlarni joriy etish hisobiga amaldagi tashkiliy-shtat tuzilmalarini bosqichma-bosqich maqbullashtirish lozim bo'ladi.

Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlari ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlashda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish (Big Data), huquqbuzarliklarning oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarni «issiq izidan» fosh etishga xizmat qiluvchi geoaxborot tizimida makon, vaqt, holat, qilmish, ob'ekt, predmet va shaxsni o'zaro bog'lovchi tahliliy va prognoz modellarini yaratish (Real-time Intelligence Crime Analytics System, Domain Awareness System), vaziyat va holat ssenariysining tahlili va prognozi asosida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish (Intelligent Information Decision Support System), raqamli kriminalistika sohasida tadqiqotlar olib borish va tergov qilish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish (Digital forensics), kuzatuv kameralarida qayd etilgan tasvirlarni real vaqt rejimida profayling tahlil qilish (Profiling analysis) orqali shaxsning jinoyiy xulq-atvorini prognozlash mexanizmini joriy etish va aholiga xizmat ko'rsatish, ekspert-kriminalistika va tezkor-profilaktik faoliyatda robototexnika imkoniyatlaridan foydalanish.

Ichki ishlar organlari faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish va uni rivojlantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

1-bosqich — yaqin istiqbolda (2025 — 2027-yillarda) joriy etiladigan sun'iy intellekt texnologiyalari, ijtimoiy va kriminogen vaziyatni prognozlash maqsadida katta hajmdagi (Big Data) ma'lumotlarni, shu jumladan, jinoyatchilik darajasi, ijtimoiy taranglik holatlarini tahlil qilish (ma'lumotlarni mashinaviy o'qitish algoritmlari asosida tahlil qilish texnologiyalari), huquqbuzarlikning oldini olish, jinoyatlarni «issiq izidan» fosh etishga xizmat qiluvchi geoaxborot tizimida makon, vaqt, holat, qilmish, ob'ekt, predmet va shaxsni o'zaro bog'lovchi tahliliy va prognoz modellarini yaratish, foto va videotasvirdagi predmetlar va boshqa holatlarni kompyuter nigohi (Computer Vision) usulidan foydalangan holda idrok etuvchi (aniqlovchi) texnologiyalarni joriy etish, nutqni aniqlash va sintez qilish, shu jumladan, ovozli yordamchilar, mijozlarga avtomatik ovozli xizmat ko'rsatish texnologiyalarini (og'zaki nutqni mashinada o'qiladigan formatga aylantiradigan texnologiyalar) joriy etish, tavsiya berish va qaror qabul qilishda qo'llab-quvvatlashning «aqlli» tizimlari (ma'lumotlar asosida mustaqil qarorlar qabul qilish algoritmlari)ni yaratish, kuzatuv kameralarida qayd etilgan tasvirlarni real vaqt rejimida profayling qilish, jinoyat va hodisalar haqidagi xabarlarini qayd etish va hisobini yuritish, hisob-qayd faoliyatini amalga oshirish hamda chuqur o'rganish algoritmlariga asoslangan ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalari (prognozlash (prediktiv) tahlil tizimlari)ni yaratish.

2-bosqich — uzoq istiqbolda (2027-yil va keyingi yillar) joriy etiladigan sun’iy intellekt texnologiyalari orqali jamoat xavfsizligini ta’minlashda sun’iy intellekt bilan jihozlangan avtonom dronlardan foydalanish, voqealarni modellashtirish orqali sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni virtual shakllantirish, huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olishda hamda elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatishda robototexnika komplekslarini joriy etish, ta’lim jarayonida o‘quv dasturlari bo‘yicha avtomatlashtirilgan tarzda o‘qitishni yo‘lga qo‘yish, xizmat hujjatlarini avtomatik ravishda rasmiylashtirish va inson miyasi bilan taqqoslanadigan va hissiyotlarni aks ettirish qobiliyatiga ega sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash hisoblanadi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda quyidagi sun’iy intellekt yechimlarini ishlab chiqish va qo‘llash belgilab berilgan bulib, bunda jinoyatlar va huquqbuzarliklar haqidagi xabarlarni qabul qilish va qayta ishlashning markazlashtirilgan «102» avtomatlashtirilgan tizimi, videomonitoring tizimlari va navigatsiya tizimi (sun’iy yo‘ldosh) ma’lumotlari va boshqa texnologiyalarning o‘zaro uyg‘unlashgan imkoniyatlari asosida sun’iy intellekt yordamida kuch va vositalarni boshqarish tizimi, real vaqt rejimida aniqlash va qayd etish imkoniyatiga ega «aqlli» videokuzatuv tizimlari yordamida shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlarini, qidirilayotgan shaxslarni, transport vositalarini va boshqa ob’ektlarni aniqlash tizimi, yo‘l harakati xavfsizligini nazorat qilishning «aqlli» tizimlari, yo‘l harakati qoidabuzarliklarini transport vositalarining davlat raqami va piyodalarning biometrik ma’lumotlari asosida avtomatlashtirilgan video va foto qayd etish tizimlari, avtotransport vositalarini boshqarish huquqi uchun imtihon topshirishda bilimlarni avtomatlashtirilgan nazorat qilishning «aqlli» texnologiyalari, ichki ishlar organlari tizimida robototexnika tizimlari va robotlar uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va ichki ishlar organlari xodimlarining asosiy vazifalarini ta’minlovchi avtomatlashtirilgan ish joylarini tashkil etishga qaratilgan.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishni ta’minlashda sun’iy intellekt orqali tezkor ahamiyatga ega katta hajmdagi muhim ma’lumotlarni, shu jumladan, turkumlashmagan turli xil boshqa ma’lumotlarni kompleks qayta ishlash tizimlari, tezkor-tergov faoliyatini amalga oshirishda tasvir va nutqni aniqlash va jinoiy xatti-harakat (qilmish)ni tahlil va prognoz qilish texnologiyalari asosida qaror qabul qilish tizimi, jinoiy xatti-harakatlar sodir etilishini kriminalistik prognozlash texnologiyalari, davlat organlari va idoralari, mahalliy davlat hokimiyatining ma’lumotlari, shuningdek, ommabop telekommunikatsiya tarmoqlarining boshqa axborot resurslari ma’lumotlari asosida jinoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni qidirish va olish bo‘yicha «aqlli» tizimlar, internet va ijtimoiy tarmoqlarda firibgarlik alomatlari bor xabarlar, diniy-ekstremistik (terrorchilik) va boshqa turdagi jinoiy qilmishlar sodir etish ko‘zlangan ma’lumotlarni avtomatik aniqlash va belgilangan tartibda blokirovka qilish uchun mo‘ljallangan «aqlli» algoritm va ularga

asoslangan tizimlar, kriminalistik ma'lumotlar bazasida ma'lumotlarni «aqli» qayta ishlash texnologiyalari,

3D skanerlash va matematik modellashtirish texnologiyalaridan foydalangan holda hodisa joyini ko'zdan kechirish jarayonlarini va protsessual hujjatlarni rasmiylashtirishni kompleks avtomatlashtirish, respublika hududlarida sodir etilgan bir xil turdagi jinoyatlarning fosh qilinishiga ko'maklashuvchi yashirin qonuniyatlar, usullar va jihatlarni aniqlash bo'yicha «aqli» tizimlar va DNK biologik materiallarini o'rganish asosida insonning tashqi fenotipik belgilarini aniqlash imkonini beruvchi «aqli» tizimlarini ishlab chiqish va qo'llash ko'zda tutilgan.

Kuch va vositalarni boshqarish, manfaatdor davlat organlari va idoralari bilan maqsadli hamkorlik qilish, turli vaziyatlarda har tomonlama asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi «aqli» tizimlar joriy etilishi orqali vaziyatni tezkor ravishda tahlil etish va prognozlash, qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha «aqli» tizim, vaziyatni tezkor ravishda onlayn monitoring qilish va hodisalarga tezkor javob berish tizimlari, elektron hujjat aylanishi va idoraviy ijro intizomi «aqli» tizimlari hamda rejalashtirish, prognozlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali hamkorlik yaxshilanishiga, ish samaradorligi oshishiga va boshqaruv qarorlarini tezkorlik bilan qabul qilishga xizmat qiladi.

Ichki ishlar organlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini keng qo'llash orqali ya'ni, ichki ishlar organlari tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlari uchun elektron ariza berish blanklarini to'ldirishni avtomatlashtirish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda tasodifiy yoki qasddan qilingan noqonuniy harakatlarni aniqlash va hodisalarga javob berishni avtomatlashtirish, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (harakatsizligi) va qarorlari ustidan shikoyat qilish tartiblarini avtomatlashtirish jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini oshirishga, tizimga bo'lgan ishonchning oshishiga xizmat qiladi.

Ichki ishlar organlari faoliyatida axborotni himoyalash va kiberxavfsizlikni ta'minlash borasida ichki ishlar vazirligining IT infratuzilmasiga halokatli ta'sirlarni, shu jumladan, kompyuter hujumlarining tavsiflangan vektorlari (CAPEC, ATT&CK, OWASP, STI va boshqalar)ni aniqlash va qayta ishlash bo'yicha tadbirlarni monitoring qilish texnologiyalari, ichki ishlar vazirligining tarkibiy va hududiy bo'linmalari axborot tizimlari va telekommunikatsiya tarmoqlarida ruxsatsiz harakatlarni aniqlash, hodisalarga avtomatlashtirilgan javob berish, ichki ishlar organlari raqamli infratuzilmasida axborot-kommunikatsiya resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini, ularning sifati va ishonchligini prognozlash orqali sun'iy intellekt texnologiyalarining alohida turlarini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Ichki ishlar organlariga xodimlar va xizmatchilarni xizmat (ish)ga qabul qilish, ular bilan ishlash, o‘qitish va malakasini oshirish jarayonlarini maqbullashtirish, normativ-huquqiy va protsessual hujjatlarni ishlab chiqish jarayonlarini tashkillashtirishda ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash funksiyalari bilan ichki ishlar organlari faoliyatining ilmiy-texnik ta‘minotini tahlil qilish, tajriba-sinov ishlarini olib borish, ilmiy tadqiqotlarni rejalashtirish va ichki ishlar organlari ehtiyojlarini prognozlash texnologiyalari, huquqiy ekspertiza qilishni avtomatlashtirish, xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishga qaratilgan huquqiy axborot tizimini joriy etish, ta‘limda virtual reallik texnologiyalarini joriy etish, virtual poligonlar va simulyatsiya o‘yinlarini yaratish, xizmatga nomzodlarni kasbiy-psixologik tanlash, xodimlar bilan psixologik ishlarni tashkil etish, psixofiziologik diagnostika, xodimlarni shaxsiy-kasbiy rivojlantirish va ruhiy tetiklantirish ishlari bo‘yicha kadrlar ta‘minoti bo‘linmalarining faoliyatini avtomatlashtiradigan «aqli» tizimlarni joriy etish, psixofiziologik tekshirishning texnik va texnologik vositalarini, psixodiagnostik majmualarni, shuningdek, xodimlarni rehabilitatsiya qilish uskunalarini takomillashtirish va tibbiyot diagnostikasida sun‘iy intellekt tizimlari joriy etiladi.

Moddiy-texnika ta‘minoti bo‘yicha moddiy va moliyaviy resurslar harakatini avtomatik monitoring qilish, xarajatlarni rejalashtirish va maqbullashtirish, shu jumladan, xizmat ko‘rsatish va transport ta‘minotini boshqarish yo‘lga qo‘yiladi.

Ichki ishlar organlari faoliyatiga sun‘iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish va rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish uchun ichki ishlar vazirligi ta‘lim va ilmiy muassasalarida sun‘iy intellekt sohasida fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish hamda innovatsion ishlanmalar ishlab chiqish, tajriba-sinovlar o‘tkazish ishlari shu sohadagi mahalliy va xorijiy ta‘lim muassasalari, IT kompaniyalar va korxonalar bilan hamkorlikda tashkil etish ichki ishlar vazirligi ta‘lim muassasalarida quyidagi institutsional sharoitlarni yagona innovatsion platformada yaratish orqali «Expert hub» (bilimlar makoni) tor ixtisoslik bo‘yicha ekspertlar, ko‘p yillik boy tajribaga ega amaliyot xodimlari va mutaxassislar guruhi, kraudfanding — loyihalar bo‘yicha vazirlik va idoralar, shuningdek, ixtisoslashgan ta‘lim muassasalarining intellektual va moddiy resurslarini uyg‘unlashtirish va hamkorlik qilish platformasi, ichki ishlar organlari xizmat faoliyatini takomillashtirish, modernizatsiya qilish hamda metodologiyasini ishlab chiquvchi ichki ishlar vazirligi ta‘lim muassasalarining mutaxassislik kafedra professor-o‘qituvchilari va izlanuvchilaridan tashkil topgan maxsus ixtisoslashgan loyiha guruhi, ichki ishlar organlari strategik va taktik boshqaruv, shuningdek, rahbar va xodimlarda raqamli savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirish borasida ilmiy-metodologik tadqiqotlar olib boruvchi raqamli kompetensiya guruhi hamda tajriba-sinov va aprobatsiya, shu jumladan, o‘quv-amaliy trening va ssenariylar

asosida kvest mashg‘ulotlar o‘tkazuvchi virtual laboratoriyalar tashkil etish orqali amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Xulosa o‘rnida qo‘yidagilarni keltirib o‘tishimiz mumkin, konsepsiyani amalga oshirish natijasida jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishda sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligi oshiriladi, ichki ishlar organlari tomonidan ko‘rsatiladigan davlat xizmatlariga sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali aholiga yanada qulayliklar yaratilib, xizmat ko‘rsatish sifati oshiriladi, ichki ishlar organlari faoliyatiga sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali mehnat unumdorligi oshishiga erishiladi, mavjud ma‘lumotlar asosida yuz berayotgan hodisalar, huquqbuzarliklarni sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda tahlil qilish va kriminogen vaziyatni prognozlash imkoni yaratiladi va jamoat xavfsizligini ta‘minlash faoliyatiga sun‘iy intellekt texnologiyalari, robototexnika va mashinaviy o‘qitish kabi zamonaviy texnologiyalarning keng joriy etilishi kuch va vositalarning muvofiqlashtirilgan holda harakatlanishiga va ichki ishlar organlari faoliyatiga sun‘iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish hamda bunday texnologiyalardan foydalangan holda ichki ishlar organlari oldiga qo‘yilgan vazifalarning samarali bajarilishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T., 2021. – Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksi. – T., 2021. – Lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. – T., 2021. – Lex.uz.
5. SH.M. Mirziyoev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., “O‘zbekiston”, 2017;
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari tizimini raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 2025-yil 30-apreldagi PQ-155-son qarori.